

BOSHLANG'ICH TA'LIM ONA TILI DARSLARIDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

Tovboyeva Gavhar Nurali qizi

**O'zbekiston-Finlandiya Pedagogika instituti Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim fakulteti
boshlang'ich ta'lim yo'nalishi 4-bosqich talabasi**

Telefon raqam. +998 93 120-22-62

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15730036>

Annotatsiya: Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda ona tili fanini o'qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari yoritilgan. Xususan, o'quvchilarning darsga bo'lgan qiziqishini oshirish, mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish va ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi interfaol metodlar – “Aqliy hujum”, “Muammoli ta'lim” va “Kichik guruhlarda ishlash” usullarining amaliy qo'llanilishi tahlil qilingan. Shuningdek, maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalarning ahamiyati, ularning o'quvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatini shakllantirishga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: innovatsion texnologiyalar, interfaol metodlar, boshlang'ich ta'lim, ona tili, ta'lim samaradorligi.

Annotation: This article explores the effective use of innovative technologies in teaching the mother tongue in primary education. In particular, it analyzes the practical application of interactive methods such as "Brainstorming", "Problem-Based Learning", and "Working in Small Groups", which contribute to increasing students' interest in lessons, developing independent thinking skills, and enhancing the effectiveness of education. The article also highlights the significance of innovative pedagogical technologies and their impact on shaping students' creative and critical thinking abilities.

Keywords: innovative technologies, interactive methods, primary education, mother tongue, educational effectiveness.

Аннотация: В данной статье освещаются вопросы эффективного использования инновационных технологий в процессе преподавания родного языка в начальном образовании. В частности, проанализировано практическое применение интерактивных методов — «Мозговой штурм», «Проблемное обучение» и «Работа в малых группах», способствующих повышению интереса учащихся к урокам, развитию навыков самостоятельного мышления и повышению эффективности обучения. Также в статье раскрывается значение инновационных педагогических технологий и их влияние на формирование творческого и критического мышления у учащихся.

Ключевые слова: инновационные технологии, интерактивные методы, начальное образование, родной язык, эффективность обучения.

KIRISH. Insoniyat tafakkuri taraqqiy etgan sari, ta'limga bo'lgan yondashuvlar ham yangilanib, shakl va mazmun jihatidan boyib bormoqda. Chunki bugungi kun bolasi — bu kechagi dunyoning davomchisi emas, balki yangi zamonning serqirra, o'z fikri va qarashlariga ega bo'lgan avlodidir. Ularning anglash darajasi, bilishga bo'lgan ehtiyoji, fikrlash sur'ati va ifoda vositalari ham avvalgidan farqlidir. Ana shunday sharoitda ta'lim tizimi, ayniqsa boshlang'ich ta'lim — o'z metod va uslublarini yangilash, yangicha texnologiyalarni o'zlashtirish orqali zamon bilan hamnafas bo'lishi kerak.

ASOSIY QISM. Boshlang'ich ta'lim – bu bolaning ongida bilimga bo'lgan muhabbatni uyg'otuvchi ilk zamin, uning kelgusidagi intellektual o'sishini belgilab beruvchi poydevordir. Bu

bosqichda dars berish oddiy bilim uzatishdan ko'ra, bola qalbiga yo'l topish san'atidir. Ayniqsa, ona tili fanining bu jarayondagi o'rni alohida: u bolaning nutqiy salohiyatini rivojlantiradi, fikrini aniq ifodalashni o'rgatadi, tafakkurini yo'naltiradi, milliy qadriyatlar bilan tanishtiradi. Zamonaviy pedagogika tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, an'anaviy usullargina bugungi o'quvchini to'laqonli o'rganishga jalb eta olmaydi. Shu sababli innovatsion texnologiyalar, interfaol o'yinlar, axborot-kommunikatsiya vositalari, virtual platformalar va raqamli ilovalar yordamida tashkil etilgan darslar — nafaqat samaradorlikni oshiradi, balki bolalarning ichki dunyosiga mos ravishda ta'sir etadi. Bu esa bilimni quruq yodlash emas, balki his qilish, tushunish va amalda qo'llashga olib keladi.

O'zbekiston Respublikasi huquqiy demokratik jamiyat qurish yo'lidan borar ekan, o'z fuqarolarining, xususan o'sib kelayotgan yosh avlodning jismonan sog'lom, ma'nan barkamol, aqlan raso bo'lib tarbiyalanishiga, zamonaviy ilm-fan yutuqlari bilan qurollangan holda ta'lim olishiga alohida e'tibor qaratmoqda. Respublikamizda ta'lim tizimiga e'tibor va munosabat tubdan o'zgargan. Barkamol shaxsni shakllantirish masalasi davlat siyosati doirasiga ko'tarilgan bo'lib, uni amalga oshirish jarayoni hisoblangan pedagogik jarayon samaradorligini ta'minlash esa, ta'lim muassasasi rahbarlari, o'qituvchilar, tarbiyachilar, pedagogik jarayon ishtirokchilari va boshqa mutaxassis xodimlarning faoliyatini samarali tashkil etish va takomillashtirish mexanizmlarini yaratish, innovatsion faoliyatni tashkil etish zaruriyatini belgilaydi. Hozirgi davrga kelib, umumta'lim maktablarda darslarni tashkil qilishning noan'anaviy usullaridan foydalanishning afzalliklari har bir zamonaviy pedagog o'qituvchi tomonidan e'tirof etilmoqda. Zamonaviy pedagogika ilmida innovatsion texnologiyalar quyidagi asosiy tamoyillar asosida rivojlanmoqda:

1. Shaxsiy yondashuv – har bir o'quvchining individual xususiyatlariga mos ta'lim berish;
2. Muammoli ta'lim – o'quvchilarni real hayotiy vaziyatlar asosida fikrlashga undash;
3. O'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rag'batlantirish – bilim olish jarayonini faollashtirish;
4. Texnologik vositalardan foydalanish – interaktiv doskalar, raqamli darsliklar va multimedia materiallari orqali ta'lim samaradorligini oshirish.

Ushbu metodlarning qo'llanilishi o'quvchilarning mavzularni puxta o'zlashtirishiga, tanqidiy va ijodiy tafakkurini rivojlantirishga imkon yaratadi. Interfaol metodlar, jumladan, *“Aqliy hujum”*, *“Muammoli ta'lim”* va *“Kichik guruhlarda ishlash”* texnologiyalari ta'lim jarayonini yanada qiziqarli va samarali qiladi. Ushbu noan'anaviy interfaol usullar yordamida o'quvchilarga qo'shimcha mashqlar bajartirganaimizda o'qish-o'rgatish jarayonini yaxshi o'zlashtirishga olib keldi. O'z vaqtida aloqani tikladi. Motivatsiya yuqori darajada bo'lishini ta'minladi, o'tilgan materialni puxta xotirada saqlab qolishga imkon berdi. Mustaqil fikrlay oladigan o'quvchining shakllanishiga yordam berdi. Aqliy hujum interfaol metodidan foydalanganimizda, mashq shartidan kelib chiqib o'quvchilar aqliga hujum qilinadi, o'quvchilarda fikr va g'oyalar tug'iladi. Bu fikr va g'oyalarni umumlashtirib, yagona, to'g'ri xulosa chiqariladi. Muommli ta'lim interfaol usulidan foydalanib, o'quvchilarga o'tilgan mavzu bo'yicha muammoli vaziyatni vujudga keltirib, ularning ushbu muammoli vaziyatni bartaraf etishlarini kuzatish, to'g'ri yo'lga boshlashi mumkin. Masalan, bir muammoli vaziyatni ko'rib chiqsak:

Muammoli vaziyat: O'qituvchi sinfga quyidagi savol bilan murojaat qiladi: “Agar biror so'zni eshitsang-u, uning qanday ma'noda aytilganini tushunmasang, nima qilasan? Deylik, “oyoq” so'zi hayvonga ham, odamga ham, hatto stolga ham tegishli bo'lishi mumkin. Nega shunday”.

O'quvchilar "so'z"ning ma'nosi kontekstdan kelib chiqib o'zgarishi mumkinligini tushunishlari uchun, o'z kuzatuvlari va tajribalari asosida fikr yuritadilar. O'qituvchi bolalarga quyidagi topshiriqni berishi mumkin: "Oyoq" so'zini 3 xil jumlada ishlatib va har birida nimani anglatayotganini tushuntiring.

O'quvchilar javoblarini taqqoslaydilar, tushunadilar: so'zlar kontekstdan kelib chiqib turlicha ma'noni anglatishi mumkin. Bu ularni o'ylashga, kuzatishga, ifodalashga undaydi.

Muammoli darsning pedagogik afzalliklari:

O'quvchilar tayyor ma'lumotni yodlash emas, o'z xulosasini chiqarishga intiladi.

Savollar orqali fikr yuritish, mantiqiy aloqalarni aniqlash ko'nikmasi rivojlanadi.

Faol ishtirok, qiziqish va jarayonga chuqur singib ketish ortadi.

O'qituvchi o'quvchiga yo'l ko'rsatuvchi, sherik sifatida namoyon bo'ladi.

Kichik guruhlarda ishlash interfaol metodidan dars jarayonida kengroq foydalanish kerak, chunki ushbu metod o'quvchilarni dars davomida quvnoqroq bo'lishini, kayfiyatlarini yuqori bo'lishini ta'minlaydi. Mavzuni mustahkamlashda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarishdan oldin, sinf o'quvchilarini bir nechta kichik guruhlariga bo'lib olinadi. O'quvchilarning taklif, istak va talablarini hisobga olgan holda kichik guruhlar nomlanadi. O'quvchilarga ushbu kichik guruhlar o'rtasida "Kim epchil, chaqqon va bilimdon" deb nomlangan musobaqa o'ynashimizni aytib, musobaqa sharti ularga tanishtiriladi. So'ng har bir kichik guruhdan bittadan o'quvchini doskaga chiqarib, berilgan mavzuga oid qo'shimcha mashqni shartiga ko'ra bajarish buyuriladi. Mashq bajarib bo'lingandan so'ng g'olib va mag'lub jamoalarga tegishli ballarni qo'yib, ushbu ballar izohlanadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari kichik guruhlarda ishlash interfaol usuli yordamida mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarganlarida erkin harakat qildilar, jamoalar g'alabasi uchun kurashdilar, mashqni tez va sifatli bajarishga harakat qildilar. Boshlang'ich sinflarda mavzuga oid qo'shimcha mashqlar bajarish, ayniqsa, mashqlarni interfaol dars metodlari yordamida bajarish o'quvchilarni mavzuni puxta egallashlarida, o'zbek tilining o'ziga xos grammatikasini o'rganishda juda ham katta ahamiyatga ega. Xususan, boshlang'ich ta'lim darslarida texnika vositalari va interfaol metodlarni qo'llash orqali o'quvchilarga taqdim etilayotgan yangi materialni osonroq yetkazishni ta'minlashga erishiladi. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tadbiq etishdan ko'zlanadigan asosiy maqsadlarni quyidagicha tasniflash mumkin:

birinchidan, ta'lim tizimini jadallashtirish;

ikkinchidan, jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan bugungi jamiyatda har qanday axborotlarni o'quvchilarga yetkazishda vaqtdan unumli foydalanish;

uchinchidan, bilim berishni yangi sifat bosqichiga ko'tarish va o'quvchilarni ta'lim jarayonining faol ishtirokchisiga aylantirish;

to'rtinchidan, mustaqillik, erkin fikr, o'zaro hamkorlik aloqalarini keng yo'lga qo'yish.

Innovatsion texnologiyalardan foydalanib o'tkazilgan har bir dars o'quvchilarni erkin fikrlashga, o'z nuqtai nazarini bayon qilishga imkon yaratadi. Jamiyatimiz rivoji, barqarorligini ta'minlashda, eng avvalo, olingan axborotlarni mustaqil tahlil eta oladigan, erkin fikrlaydigan yoshlar zarur. Shuning uchun ham o'quv-tarbiya jarayonida innovatsion usullar, texnologiyalarning o'rni va ahamiyati beqiyos. Pedagogik texnologiyalarni ta'limda qo'llash o'quvchilarning bilimli va yetuk malakali bo'lishlarini ta'minlaydi. "Innovatsiya" inglizcha so'z bo'lib, "yangilik kiritish", "yangilik" degan ma'nolarni anglatadi. Innovatsion texnologiyalar orqali ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi faoliyatiga yangilik va o'zgartirish kiritiladi va bu jarayon interfaol usullardan foydalanish orqali amalga oshiriladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, turli metodlardan foydalanilgan darslarda o'quvchilar mavzularni 30-40% yaxshiroq o'zlashtiradi va ularning darsga bo'lgan motivatsiyasi ortadi. Innovatsion pedagogik muammolar yechimini izlash ta'lim sohasida innovatsion jarayonning xususiyati, mazmuni, tarkibini tasniflash va tekshirish natijalarini tahlil qilish bilan amalga oshiriladi. Ta'lim jarayonini boshqarish o'qituvchidan katta mahorat talab qiladi. Mashg'ulot jarayonida o'qituvchi o'z faoliyati va o'quvchilar faoliyatini tashkil etish yo'llarini, o'quvchilar bilimni nazorat etish eng samarali usullarini ishlab chiqadi. Bu jarayonda interfaol usullardan foydalanishning, ko'zlangan maqsadni amalga oshirish uchun zamin bo'ladi. Interfaol usullar zamirida o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi yotadi. Bunday pedagogik hamkorlik jarayonining o'ziga xos xususiyati shundaki, o'quvchining dars jarayoniga loqaydligi, nafaolligining oldi olinadi va mustaqil fikrlash, ijod qilish, izlanishga jalb qilinadi, o'quv jarayoniga, fanga bo'lgan qiziqishlarining doimiyligi ta'minlanadi. Pedagogik texnologiyaning maqsadi o'qituvchi va o'quvchining belgilangan maqsadga hamkorlikda erishishlarini ta'minlashdir. O'qitish jarayonida maqsad bo'yicha kafolatlanganmi natijaga erishishi mumkin. O'quv jarayonida o'quvchilar mustaqil fikrlab, ijodiy ishlab, izlanib, tahlil etib, o'zlari xulosa qila olsa, ko'zlangan maqsad amalga oshadi.

O'qituvchi o'quvchilarning faoliyati uchun imkoniyat va sharoit yarata olishi, o'qitish jarayonining asosi hisoblanadi. Har bir dars, mavzu, o'quv fanining o'ziga xos texnologiyasi bor. Bugungi kunda bizga ma'lum va keng qo'llanadigan usullardan *"Aqliy hujum"*, *"Klaster"*, *"Venn diagrammasi"*, *"BBB"*, *"FSMU"* kabilar dars jarayonida o'zlanining samarali natijalarini ko'rsatib kelmoqda. *"Qiyoslash metodi"*, *"Davra metodi"*, *"6x6x6"* kabi metodlarning dars samaradorligini ta'minlashda o'ziga xos o'rni bor. Shuningdek, ona tili fanidan *"Gapning ikkinchi darajali bo'laklari"* mavzusi o'rgatib bo'lingandan keyin, o'quvchilarga *"Guruhlarda ishlash metodi"*dan foydalangan holda, *"Men To'ldiruvchiman!"* mavzusida ijodiy matn tuzish topshiriladi. Bu topshiriq yakka tartibda, kichik yoki katta guruhlar tomonidan ham bajarilishi mumkin. Mavzu yuzasidan tuzilgan matn o'quvchilar tomonidan taqdim qilinadi. Bu metod orqali o'quvchilarning jamoada ishlash ko'nikmalari rivojlantiriladi, xotirasi mustahkamlanadi, yozma va og'zaki savodxonli o'stirilib, ijodiy matn yaratish malakasi mustahkamlanadi. Ona tili darslarida o'quvchilarning yozma nutqi va imlosavodxonligini mustahkamlash maqsadida matn yaratish yuzasidan bir qancha qiziqarli topshiriqlar berish mumkin. Tilning rivojlanishi, ayrim so'zlarning ma'nolari haqidagi bilimni boshlang'ich sinf o'quvchilari ot, sifat, son, fe'lni o'rganish jarayonida asta-sekin bilib oladilar. Bu o'rinda *"So'zning tarkibi"* bo'limi katta imkoniyatga ega. O'quvchilar bu bo'lim materiallarini o'rganish jarayonida tilimizning yangi so'zlar bilan boyib borishi haqidagi muhim manbalar bilan, so'z yasaliishi bilan tanishdilar. Jumladan, *"So'zning tarkibi"* bo'limini o'tish jarayonida har bir so'z turkumi yuzasidan ertak yaratish vazifasi topshirilsa, o'quvchilarning grammatikami savodxonligi o'sish bilan bir qatorda, mantiqiy mushohada qilish qobiliyati rivojlanadi, ijodkorligi oshadi. Innovatsion texnologiyalar ta'lim sifati va samaradorligini oshirib, ta'lim jarayoning markaziga o'quvchilarning o'quv-biluv faoliyatini qo'yadi, ta'lim jarayonining yaxlitligini ta'minlaydi. O'quvchi faoliyatining yuqori darajadagi ko'rsatkichi, o'quv-biluv faoliyatini o'zi tashkil etishi, iroda va faoliyatning o'quvchi ongining predmetiga aylanishidir. Bu maqsadni amalga oshirish uchun, avvalo, ta'lim beruvchi maqsadga eltuvchi usullarni tanlay bilishi, o'quv-tarbiyaviy jarayon yaxlitligini ta'minlashi lozim.

XULOSA. Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish nafaqat o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtiradi, balki ularning mustaqil fikrlash, ijodiy yondashish,

axborotni samarali tahlil qilish kabi ko'nikmalarini ham rivojlantiradi. Ona tili darslarida interfaol usullardan foydalanish natijasida o'quvchilarning nutqiy va yozma savodxonligi ortib, ta'lim sifati sezilarli darajada oshadi. Kelgusida ushbu sohalarni yanada chuqur o'rganish va amaliyotga keng joriy etish zarur. Innovatsion texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish, ta'lim samaradorligini oshirish uchun tinimsiz izlanish bugungi kunning ehtiyojiga aylanmoqda. Yangi metodlarni ta'lim jarayoniga tadbiq etish pedagoglar oldida turgan masalalardan hisoblanadi. Ona tili darslarida o'zbek tiliga muhabbat va so'zga ehtiyotlik bilan munosabatni tarbiyalashga alohida e'tibor beriladi. Buning uchun matn puxta tanlanadi. Tilni o'rganish jarayonida eksik-uslubiy ishlarga katta o'rin beriladi. Darsda she'r, soddalashtirilgan matnlar bilan birga, yuksak badiiy matnlardan ham foydalaniladi. Ona tili o'qitish jarayoni o'quvchilarda ilmiy dunyoqarash asoslarini shakllantirishga qaratiladi. Ona tili darslari har bir kishi uchun zarur bo'lgan saranjom-sarishtalik, mustaqillik, tashabbuskorlik sifatlarini tarbiyalash hamda rivojlantirishga har bir pedagog bugungi kun talabi doirasida yondashishi, innovatsion texnologiyalardan unumli foydalanishi zarur.

References:

Используемая литература: Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mirziyoev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlikhar bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. Xalq so'zi, 2017.
2. Yo'ldoshev J.G', Usmonov S.A. "Zamonaviy pedagogik texnologiyalarni amaliyotga joriy etish". Toshkent, 2008.
3. Qosimova K., Matchonov S., G'ulomova X va b. "Ona tili o'qitish metodikasi", Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari uchun darslik, Toshkent "NOSIR" nashriyoti 2009. B. 395.
4. Beknazarova X.S "Boshlang'i ta'limda zamonaviy texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati", Oriental Renaissance/ issue 5/2024/ Issn: 2181-1784.
5. Rajabova S.K., "Zamonaviy texnologiyalar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining tafakkurini rivojlantirish". Ta'lim va rivojlanish jarayoni. 2023. B 73-75.